TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI 1931 TDIU

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*


№8
MAXSUS SON


Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY · OpenAIRE · ROAD · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА ELIBRARY.RU · Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA · BASE · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL · Crossref

# BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO‘PLAMI





ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/
2025

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 80 sahifa.*
*2025-yil noyabr*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Oʻz.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....10
**Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna**

FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS....15
**Ibrokhimkhuja Rikhsikhujaev, Mohit Bhandwal**

BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI....22
**Ikromov Boisxon Bahodir o‘g‘li, Ozodbek Musayev**

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI....27
**Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li**

YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR....32
**Rafiqov Abror Baxtiyor o‘g‘li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o‘g‘li**

OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI....36
**Mirkamolov Mirsardor Mirxamdam o‘g‘li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich**

STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O‘SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI....41
**Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG‘URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI....46
**Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich**

IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA MILLIY TO‘LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI....50
**Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**

CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE....56
**Pirnazarov Elchin Anvar o‘g‘li, Yoldasheva Roila Jumaevna**

JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK....61
**Qayumov Sobit Obid o‘g‘li, Xasanov Nodir Erkinovich**

LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT....68
**Qurbonov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafoyev Golib Sultonmurodovich**

ISTE’MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI....75
**Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI







**Q.Abdukarimov**
TDIU, Buxgalteriya hisobi
fakulteti talabasi

**M.Keldibekova**
TDIU, Buxgalteriya hisobi
fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar:
**F.Umarov**
TDIU, Mintaqaviy iqtisodiyot
kafedrasi dosenti

Annotatsiya: Maqolada iste'molchi tanlovi va naflilik nazariyasining nazariy asoslari, zamonaviy iqtisodiy munosabatlardagi o'rni hamda amaliy qo'llanilishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida iste'molchilar xatti-harakatlarini shakllantiruvchi asosiy omillar va naflilikni maksimallashtirish tamoyillari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: iste'molchi tanlovi, naflilik nazariyasi, iqtisodiy xatti-harakatlar, talabning chekli naf, bozor muvozanati, ratsional tanlov.

Abstract: The article analyzes the theoretical foundations of consumer choice and utility theory, their role in modern economic relations, and their practical application. The research results reveal the main factors shaping consumer behavior and the principles of utility maximization.

Key words: consumer choice, utility theory, economic behavior, marginal utility, market equilibrium, rational choice.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы теории потребительского выбора и полезности, их роль в современных экономических отношениях и практическое применение. Результаты исследования раскрывают основные факторы, формирующие поведение потребителей, и принципы максимизации полезности.

Ключевые слова: потребительский выбор, теория полезности, экономическое поведение, предельная полезность, рыночное равновесие, рациональный выбор.

## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish va yuqori darajadagi raqobatning hozirgi sharoitida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir tashkilot nafaqat ichki bozor, balki tashqi bozorda ham iste'molchilarni o'rganishga diqqat bilan yondashishi kerak. Shu maqsadda maqsadli auditoriyaning istalgan javobiga ega bo'lish ehtimolini oshirish uchun davlat tomonidan tartibga solishning turli choralari va iste'molchilarga ta'sir etish vositalari qo'llaniladi. 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, sanoat hamda xizmat ko'rsatish ulushini kengaytirish hisobiga milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish" zarurligi ta'kidlangan [1].

Xizmatlar sohasi hozirgi kunda jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda; bunda biznesni yuritish bo'yicha an'anaviy usullar o'rniga yangi, ya'ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, turizm, konsalting, rekruting singari yondashuvlar qo'llanilmoqda. Xizmatlar bozorida asosiy sub'yektlar marketing menejmenti

tizimida "iste'molchi" ta'rifini olgan ishlab chiqaruvchi va xaridor hisoblanadi. Marketingning asosiy maqsadi esa – tovar va xizmatlar sotishdan foydani oshirish, bozor ulushini kengaytirish hamda ishlab chiqaruvchi imijini mustahkamlashdan iborat.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada iste'molchi tanlovi va naflilik konsepsiyasi mikroiqtisodiyot fanining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchi o'zining cheklangan daromadi doirasida turli tovar va xizmatlar orasidan tanlov qiladi, bu esa iqtisodiy jarayonlarning eng asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Iste'molchi qanday mahsulotni tanlaydi, qaysi tovarni ma'qul ko'radi va bu tanlovga qanday omillar ta'sir qiladi – ushbu savollar iqtisodiy tahlilning markazida turadi.

Naflilik (utility) nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida Uilyam Stenli Jevons, Karl Menger va Leon Valras kabi klassik iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u qiymatning manbai haqidagi tasavvurlarni tubdan o'zgartirdi. Mazkur yondashuvga ko'ra, tovar yoki xizmatning iqtisodiy qiymati uning ishlab chiqarishga sarflangan mehnat miqdori bilan emas, balki iste'molchiga keltiradigan qoniqish darajasi – ya'ni nafliligi bilan belgilanadi. Shu tariqa, neoklassik iqtisodiyot maktabi subyektiv qiymat konsepsiyasini ilgari surdi va iqtisodiy qarorlarning markaziga iste'molchining xulq-atvori hamda afzalliklarini qo'ydi [2].

Bugungi kunda globallashuv, raqamli texnologiyalar va iste'mol jamiyatining rivojlanishi natijasida iste'molchi tanlovi jarayonlari yanada murakkablashmoqda. Internet-savdo platformalari, elektron to'lov tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi tavsiya algoritmlari va ijtimoiy tarmoqlardagi iste'molchi fikrlari bozordagi raqobatni hamda iste'molchilarning qarorlarini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy iqtisodiy model endilikda insonning psixologik, ijtimoiy va raqamli omillar ta'siri ostidagi xatti-harakatlarini to'liq ifodalab bera olmaydi. Shu sababli, naflilik nazariyasini zamonaviy iqtisodiy va texnologik sharoitlarga moslashtirish, uni yangi konseptual yondashuvlar bilan boyitish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – iste'molchi tanlovi va naflilik nazariyasining nazariy-metodologik asoslarini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilarning xatti-harakatlari, afzalliklari hamda tanlov mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdir. Tadqiqot natijalari asosida milliy iqtisodiyotda iste'mol bozori samaradorligini oshirish, raqamli iqt

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iste'molchi tanlovi va naflilik nazariyasi yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli yondashuvlar ilgari surilgan. Quyida ushbu nazariy konsepsiyalar, ularning o'ziga xos jihatlari hamda iqtisodiy tahlilga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi.

A.V. Vaxabov o'zining "Mikroiqtisodiyot" asarida naflilik nazariyasining asosiy tamoyillarini chuqur yoritib, iste'molchi tanloviga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tarzda tahlil qiladi. Muallif ta'kidlaganidek, iste'molchi o'z daromadining cheklanganligi sharoitida tovar va xizmatlarning eng maqbul kombinatsiyasini tanlash orqali o'z nafliligini maksimal darajaga yetkazishga intiladi (Vaxabov, 2018). Bu yondashuv naflilik maksimallashtirish nazariyasining amaliy ahamiyatini ochib beradi [2].

N.X. Jumaev va M.T. Sodiqov "Iqtisodiy nazariya" darsligida iste'molchi xatti-harakatlarini modellashtirish usullarini batafsil tahlil qilib, befarqlik egri chiziqlari hamda byudjet chizig'i o'rtasidagi muvozanatni grafik va analitik shaklda ko'rsatadi. Ularning fikricha, befarqlik egri chizig'i iste'molchining turli tovarlar kombinatsiyasiga nisbatan afzallik darajasini ifodalaydi (Jumaev, Sodiqov, 2020) [3].

R.A. Alimov "Bozor iqtisodiyoti nazariyasi" asarida chekli naflilik qonunining mohiyatini ochib berib, uning narx shakllanishi va iste'molchi qarorlariga ta'sirini tahlil qiladi. Muallifga ko'ra, har bir qo'shimcha mahsulot birligi iste'molchiga avvalgisiga nisbatan kamroq qoniqish keltiradi, bu esa talabning pasayuvchi xususiyatini izohlaydi (Alimov, 2019) [4].

E.M. Ergashev "Raqamli iqtisodiyotda iste'molchi tanlovi" ishida elektron tijorat va raqamli platformalarning rivojlanishi iste'molchi xulq-atvoriga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tadqiq qilgan. U raqamli muhit iste'molchiga kengroq tanlov imkonini yaratishini, biroq ma'lumot ortiqchaligi va tanlov paradoksini ham keltirib chiqarishini ta'kidlaydi (Ergashev, 2022) [5].

Xorijiy manbalardan biri bo'lgan H.R. Varian o'zining "Intermediate Microeconomics: A Modern Approach" asarida iste'molchi tanlovi modelini zamonaviy matematik yondashuvlar yordamida izohlaydi. U naflilik funksiyasi, befarqlik egri chiziqlari va chegaraviy almashtirish normasi orqali iste'molchining ratsional qarorlarini tushuntiradi (Varian, 2023) [7].

N. Gregory Mankiw "Principles of Microeconomics" darsligida mikroiqtisodiyotning fundamental tushunchalarini yoritib, naflilik va iste'molchi tanlovi nazariyasini amaliy misollar orqali tushuntiradi. U ratsional tanlov nazariyasini real hayotdagi iqtisodiy qarorlar bilan bog'laydi (Mankiw, 2021) [8].

Vilfredo Pareto "Manual of Political Economy" asarida ordinal naflilik va befarqlik egri chizig'i nazariyasiga asos solib, iqtisodiy farovonlik tahlilida subyektiv baholashning ahamiyatini asoslaydi. Pareto yondashuvi iste'molchi tanlovining psixologik jihatlarini ham inobatga oladi (Pareto, 2014) [9].

J.R. Hicks va G.D. Allen "A Reconsideration of the Theory of Value" nomli ilmiy maqolasida iste'molchi tanlovi va naflilik tahlilining matematik asoslarini ishlab chiqqan. Ular ordinal yondashuv orqali naflilikni befarqlik egri chiziqlari yordamida ifodalashni taklif etgan bo'lib, bu hozirgi zamon mikroiqtisodiy tahlilining poydevorini tashkil etadi (Hicks & Allen, 1934) [7].

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, iste'molchi tanlovi va naflilik nazariyasi doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Tahlil qilingan adabiyotlar iste'molchi tanlovi va naflilik nazariyasi bo'yicha nazariy bilimlar bazasini shakllantirishga hissa qo'shgan, ammo zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar va O'zbekiston bozorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan chuqur empirik tadqiqotlar yetishmovchiligi sezilmoqda.

## TADQIQOTLAR METADOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot sifat va miqdoriy metodlar asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida iste'molchi tanlovi va naflilik nazariyasining iqtisodiy tahlildagi ta'sirini baholash hamda optimallashtirish imkoniyatlarini o'rganish maqsadida turli metodologik yondashuvlar qo'llanildi.

Nazariy tahlil doirasida iqtisodiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va monografiyalar o'rganildi. Naflilik nazariyasining klassik va zamonaviy yondashuvlari, shuningdek, O'zbekiston iqtisodchilarining ushbu sohadagi ilmiy ishlanmalari taqqoslama tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot qismi 2024-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Markaziy bank hisobotlari va chakana savdo tarmog'i operatorlarining statistik ko'rsatkichlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda 1 500 respondentni qamrab olgan so'rovnoma natijalari tahlil qilindi.

Matematik-statistik tahlil usullari qo'llanildi, jumladan: korrelyatsion tahlil, regressiya modellari, elastiklik koeffitsiyentlarini hisoblash va varians tahlili. Iste'molchilar xatti-harakatlarini modellashtirish uchun ekonometrik dasturlar (SPSS, EViews) ishlatildi.

Sifat usullari ichida chuqur intervyular, fokus-guruh munozaralari va kuzatuv metodi qo'llanildi. Ushbu yondashuv iste'molchilar tanlovini shakllantiruvchi psixologik va ijtimoiy-madaniy omillarni aniqlashga yordam berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yilda O'zbekiston iste'mol bozorida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar–sentyabr davomida chakana savdo aylanmasi 348,7 trillion so'mni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,2% o'sishni ko'rsatadi (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024).

Iste'molchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish natijasida bir qancha muhim tendensiyalar aniqlandi. Birinchidan, raqamli to'lov tizimlaridan foydalanish keskin oshdi. 2024-yilda elektron to'lovlar umumiy to'lovlar hajmining 68,4%ini tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan 15,3 foiz punktga yuqori ko'rsatkichdir. Ikkinchidan, internet-savdo segmentida sezilarli o'sish kuzatildi. 2024-yil uchun onlayn savdo platformalari orqali amalga oshirilgan xaridlar hajmi 42,8 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 34,6% oshdi. Bu ko'rsatkich iste'molchilar tanlovida raqamli kanallarning ahamiyati ortayotganini tasdiqlaydi.

Naflilik maksimallashtirish kontekstida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'zbek iste'molchilari uchun narx omili hamon yetakchi ahamiyatga ega (78,3% respondentlar), ammo mahsulot sifati (71,6%) va brend ishonchliligi (54,2%) ham muhim rol o'ynaydi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston iste'molchilarining tanloviga ta'sir etuvchi omillar (2024)

| Omil | Ahamiyatli darajasi (%) | O'zgarish nisbati (2023) |
|---|---|---|
| Narx | 78.3% | -3.2 |
| Mahsulot sifati | 71.6% | +5.8 |
| Brend ishonchliligi | 54.2% | +8.4 |
| Yetkazib berish tezligi | 49.7% | +12.3 |
| Ekologik xavfsizlik | 38.9% | +15.6 |
| Mahalliy ishlab chiqarish | 45.3% | +6.7 |

Daromad guruhlariga ko'ra tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori daromadli segment (oylik daromad 10 mln so'mdan yuqori) vakillarida naflilik funktsiyasi ancha murakkab bo'lib, ular utovarchun mahsulotning funksional xususiyatlaridan tashqari, ijtimoiy status, eksklyuzivlik va brend imiji ham muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY




1-rasm. Iste'molchilarining tanloviga iste'molchi ahamiyati darajasi

2024-yilda amalga oshirilgan ekonometrik tahlil chekli naflilik qonunining O'zbekiston bozorida to'liq tasdiqlanganligi ko'rsatdi. Asosiy iste'mol tovarlari (non mahsulotlari, sut mahsulotlari, sabzavot-poliz) bo'yicha iste'mol hajmi ortishi bilan chekli naflilik koeffitsiyenti statistik ahamiyatli ravishda pasayadi ($r=-0.87$, $p<0.01$) (2-jadval).

2-jadval. Daromad bo'yicha talab elastikligi

| Mahsulot toifasi | Elastiklik koeffisiyenti | Mahsulot turi | Xususiyat |
|---|---|---|---|
| Non va don mahsuloti | 0.28 | Zaruriy tovar | Eng past elastiklik |
| Sut va go'sht | 0.55 | Oddiy tovar | O'rtacha elastiklik |
| Kiyim va kechak | 0.89 | Oddiy tovar | Nisbatan elastik |
| Maishiy texnika | 1.58 | Yuqori sifatli tovar | Eng yuqori elastiklik |
| Transport vositalari | 1.34 | Yuqori sifatli tovar | Yuqori elastiklik |

Elastiklik tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston bozorida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari talabining daromad bo'yicha elastikligi 0,42 ni tashkil etadi, bu esa mahsulotlarning zaruriy ehtiyoj toifasiga kirishini tasdiqlaydi. Biroq zamonaviy texnologik mahsulotlar (smartfonlar, kompyuterlar, maishiy texnika) uchun daromad elastikligi 1,78 ga teng bo'lib, bu ularning hashamatli tovarlar toifasiga yaqinligini bildiradi.

Fokus-guruh munozaralari natijasida aniqlangani shuki, o'zbek iste'molchilari uchun oilaviy an'analar va ijtimoiy muhit ta'siri ancha kuchli. 63,4% respondentlar muhim xaridlar qilishda oila a'zolari yoki yaqin do'stlar bilan maslahatlashishni afzal ko'rishadi. Bu kollektivistik madaniyat xususiyatlarining naflilik funksiyasiga ta'sirini ko'rsatadi.

2024 yilda kuzatilgan yana bir muhim tendensiya – "aqlli iste'mol" konsepsiyasining ommalashishi. 41,8% respondentlar o'zlarini ongli iste'molchilar deb hisoblashlarini va xarid qilishdan oldin mahsulot haqida batafsil ma'lumot to'plashni ma'qul ko'rishlarini bildirdi. Bu ratsional tanlov tamoyillarining amaliy qo'llanilishini kuchaytirayotganidan dalolat beradi.

Regional tahlil natijalari Toshkent shahri va viloyat markazlarida iste'molchilar tanlovi xususiyatlarida farqlar borligini ko'rsatdi. Poytaxtda raqamli xizmatlar va innovatsion mahsulotlarga talab 2,3 marta yuqori, qishloq joylarida esa mahalliy ishlab chiqarilgan va an'anaviy mahsulotlarga moyillik kuchliroq (57,8%).

Shuningdek, 2024-yilda yoshlar (18-30 yosh) iste'mol xatti-harakatlarida o'ziga xos xususiyatlar aniqlandi. Bu guruh vakillarida impulsiv xaridlar ulushi ancha yuqori (34,6%), internet-savdodan foydalanish faolligi maksimal darajada (81,3%) va yangi brendlar hamda mahsulotlarni sinab ko'rishga ochiqlik ko'proq (68,9%).

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot doirasida iste'molchi tanlovi va naflilik nazariyasi bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar quyidagi asosiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi. Nazariy jihatdan, naflilik nazariyasining klassik tamoyillari – chekli naflilik qonuni, ratsional tanlov prinsipi va naflilikni maksimallashtirish maqsadi – O'zbekiston bozorida asosiy iste'molchi xatti-harakatlarini izohlashda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizning madaniy-ijtimoiy konteksti ushbu nazariy tamoyillarga muhim modifikatsiyalar kiritilishini taqozo etadi.

Empirik tahlillar natijasida 2024-yil ma'lumotlari ko'rsatdiki, raqamlashtirish jarayoni iste'molchi tanlovida tobora kuchayib bormoqda. Biroq an'anaviy qadriyatlar va oilaviy qarorlar mexanizmlari hamon iste'molchilarning tanlovida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini pozitsiyalashda mahalliy iste'molchilar xususiyatlarini – narx va sifat o'rtasidagi muvozanat, mahalliy mahsulotlarga ishonch hamda oilaviy qadriyatlarga moslikni – hisobga olishlari zarur.

Davlat siyosati nuqtai nazaridan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlash, raqamli savdo platformalarini tartibga solish va iste'molchilar savodxonligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlarni kengaytirish muhimdir. Shu bilan birga, kelajakda sun'iy intellekt va mashinali o'rganish algoritmlarining iste'molchi tanloviga ta'siri, shuningdek, ekologik ongli iste'molchilik tendensiyalarini yanada chuqurroq o'rganish zarurati mavjud.

Ta'lim tizimida esa iqtisodiy bilimlarni o'rgatishda naflilik nazariyasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda tushuntirish, real bozor sharoitlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Iste'molchi tanlovi va naflilik nazariyasi zamonaviy bozor iqtisodiyotida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan fundamental konsepsiyalar sirasiga kiradi. O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanish jarayonida ushbu nazariyaning yangi sharoitlarga moslashtirilishi va milliy xususiyatlarni inobatga olgan yondashuvlarni ishlab chiqish ayni paytda dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son. www.lex.uz
2. Vahabov A.V. *Mikroiqtisodiyot*: Darslik. Toshkent: Iqtisodiyot, 2018-y. 456 b.
3. Jumayev N.X., Sodiqov M.T. *Iqtisodiy nazariya*: Darslik. Toshkent: Sharq, 2020-y. 512 b.
4. Alimov R.A. *Bozor iqtisodiyoti nazariyasi*. Toshkent: Fan, 2019-y. 384 b.
5. Ergashev E.M. Raqamli iqtisodiyotda iste'molchi tanlovi. *Innovatsion iqtisodiyot*. 2022-y. №2. B. 65-72.
6. Mas-Colell A., Whinston M.D., Green J.R. *Microeconomic Theory*. New York: Oxford University Press, 1995 y. — 900 p.
7. Varian H.R. *Intermediate Microeconomics: A Modern Approach*. New York: W.W. Norton & Company, 2014 y. — 600 p.
8. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. *Economics* (19th ed.). New York: McGraw-Hill Education, 2010 y. 850 p.
9. Mankiw N.G. *Principles of Economics* (9th ed.). Boston: Cengage Learning, 2021 y. 700 p.

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li


## 8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to‘plami


© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz